



Loyiha haqida

Happy Glamp — bu Toshkentdan 50 km uzoqlikda, Tuyabo‘g‘oz suv ombori sohilidagi ilk oilaviy glamping. Glamping — bu tabiat qo‘ynida dam olishning yangicha ko‘rinishi. Unda qulaylik va sifatli xizmat ko‘rsatish bilan bevosita tabiat muhitiga sho‘ng‘ish nazarda tutiladi.

Kompaniya turistik xizmatlar bozoriga 2023-yilning yozida kirib keldi.

Dam oluvchilarga suv ombori sohilida dam olish, ovqatlanish, turli ko‘ngilochar xizmatlar, yozgi dam olish uchun uskunalar ijarasi (tapchan, basseyn, katerda sayohat, barbekyu hududi va boshqalar)ni taqdim etadi.

Muammo

Bizga murojaat qilgan mijozlar tayyor neyning bilan kelishdi, odatda neyning brend aydentikasini yaratishda birinchi qadam bo'ladi. Biroq tez orada ular tushunib yetishdiki, nom yaxshi topilgani bilan potensial mijozlar va auditoriya orasida kerakli darajada taniqlilikni ta'minlab berolmaydi.

Taniqlilik muammosini hal qilish uchun kompaniya unikal aydentika (фирменный стиль)ning zaruratini tushunib yetdi, aydentika kompaniyani raqobatchilardan ajratib chiqaradi va uning noyob qadriyatlarini aks ettiradi.

Yechim

Shu bois biz logotip, ranglar palitrasi, shriftlar, noyob pattern va boshqa vizual elementlarni o'z ichiga olgan aydentika ishlab chiqishni boshladik. Bularning barchasi mustahkam va oson taniladigan brend qiyofasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tashuvchilar

Lager tashrifchilari kerakli nuqtalarga osonlik bilan borishlari uchun biz joylashuvlar aks etgan eshik peshtaxtalari, navigatsion ustunlar, ko'rsatish belgilarini ishlab chiqdik.

Brendbukka, shuningdek, kompaniyaning asosiy korporativ tashuvchilari namunalarini ham kiritdik. Aydentika tashuvchilari — bu kompaniyaning aydentika elementlari aks ettirilgan har qanday obyektlar, masalan, krujkalar, likopchalar, uniforma, futbolka, panamka, kepka va hokazolar.

Ish natijalari

Biz amalga oshirgan kompleks dizaynerlik ishi natijasida kompaniya turistik xizmatlar bozoriga muvaffaqiyatli kirib bordi va raqobatchilari orasida farqlanib turadigan bo'ldi.



Logotip

Logotip shinamlik va tabiat muvozanatini o'zida mujassam etgan. Bu uy tasviri bo'lib, uning tomidan endi chiqayotgan quyosh o'z nurini sochmoqda. Yog'ochli bino tabiatda dam olishga bo'lgan muhabbat va tabiiy go'zallik muhitida shinam hordiq chiqarishni ifodalaydi.

Uy ostida dam olish maskani nomi — Happy Glamp mag'rur tasvirlandi. Nomning birinchi va so'nggi harflari bu do'stona uychaning mustahkam ustuni sifatida aks ettirilganiga ahamiyat bering.





Pattern

Happy Glamp patternni tabiatda dam olish mavzusini ochib beruvchi elementlardan tashkil topdi. Unda ko'l, daraxtlar, gulxan, kottejlar, chodirlar va safar jihozlari, shu bilan birga, somsa, kosa, yopgan non kabi brendning O'zbekistonga oid ekanini bildiruvchi geografik belgilar ham aks etgan.



Rang yechimlari

Brend aydentikasini yaratishda biz ongli ravishda 3 ta rangdan foydalandik: chuqur yashil, iliq olovrang va tutunsimon oq rang.

Tanlangan har bir rang tabiat og'ushida bo'lish stilistikasini ajoyib tarzda ochib beradi.

To'yingan olovrang

C 1 M 62 Y 92 K 3
R 230 G 120 B 46
#E6782E

To'yingan olovrang yashil bilan ajoyib kontrast hosil qilgan holda obrazimizga quvnoqlik, maroq va to'laqonli dam olish hissini beradi. U bizni energiya va hayotiy kayfiyat bilan boyitgan holda bizni quyosh botishi onlariga chorlaydi.

Ko'kimtir yashil

C 86 M 55 Y 55 K 72
R 38 G 54 B 56
#263638

Ko'kimtir yashil — bu savlat va hurmat rangi. Bu tabiat, yangilik, yoshlik va umid timsoli. U salomatlik va tabiat uyg'unligini ifodalaydi. Yashilning ko'kimtir tusi ishonchlik va nufuz hissini yaratadi, bu esa auditoriya uchun jozibadorlik beradi va brendni qabul qilishni osonlashtiradi.

Tutunsimon oq

C 4 M 3 Y K 0
R 245 G 245 B 245
#F5F5F5

Tutunsimon oq rang — o'zining nafisligi bilan makonni to'liq qurshab olgan mayin bulut. Go'yoki tarqalib ketayotgan bu tus yengillik va mayinlik hissini beradi. Tutunsimon oq rangning yengilligi tozalik va ulug'vorlik ifodasidir. Boshqa ranglar bilan birgalikda o'zaro uyg'un kompozitsiyalar hosil qiladi va nafislik estetikasini jo aylaydi.





Suzish



45m²



455 m²

- 20m high walls
- 10m high roof
- 10m high walls
- 10m high walls
- 10m high walls



For 10 years we've been 'Happy Glam' and we're still here.










3

Happy Glami



ДОБРО ПОЖАЛОВАТЬ
В НАШ СЕМЕЙНЫЙ
ГЛЭМПИНГ!

 998 99 988 11 88 / 998 33 010 18 54



АЙС-ТИ

1Л - 40.000

ЛИМОНАД

1Л - 40.000

МОХИТО

1Л - 40.000



E'tiboringiz uchun rahmat



info@minim.uz   